JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 9, October-November 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY YANGILANISH VA MILLIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Jumanov Hasan Nasritdin o'g'li
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

ИСТОРИЯ СТАТЬИ:
Received:07.11.2026
Revised: 08.11.2026
Accepted:09.11.2026

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
Ma'naviy yangilanish, komil inson, shaxs kamoloti, ma'naviy barkamollik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ma'naviy meros, milliy mentalitet, mafkuraviy immunitet, globallashuv, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil..

АННОТАЦИЯ:

Mazkur maqolada globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashayotgan hozirgi davrda ma'naviy yangilanishning shaxs kamoloti va komil insonni tarbiyalashdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil etilgan. Unda komil inson konsepsiyasining tarixiy-falsafiy ildizlari, Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida inson ma'naviy kamolotining talqini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda so'nggi yillarda ma'naviy yangilanish jarayoni shaxs kamoloti hamda komil insonni tarbiyalash masalalari bilan chambarchas bog'liq holda keng o'rganilmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng rivojlanishi va madaniyatlararo integratsiyaning kuchayishi insonning ma'naviy olami hamda axloqiy qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada shaxsning ma'naviy barqarorligi, ichki erkinligi, axloqiy mas'uliyati va ijtimoiy faolligi masalalari zamonaviy falsafiy hamda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar jarayonida ma’naviy yangilanish va komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Shu asosda milliy g‘oya, tarixiy xotira, madaniy meros va ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni rivojlantirish orqali komil insonni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’naviy barkamollikning asosiy mezonlari masalasida esa aqliy yetuklik, mas’uliyat hissi, yuqori bilim darajasi, iste’dod hamda axloqiy fazilatlar yetarlimi yoki bu tushuncha yanada kengroq mazmunni o‘z ichiga oladimi, degan savol ilmiy munozaralarda dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa komil inson konsepsiyasini yanada chuqur tahlil qilish va uning nazariy asoslarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi[17] Darxaqiqat, komillikni shakllantiruvchi jihatlarning asosiy biri ma’naviyatdir - degan savol tug‘iladi? Komil inson g‘oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Prof. M.Imomnazarov ta’kidlaganlaridek, “Inson farishta emas. U moddiy vujud sifatida yaratilgan. Shunday ekan, uning inkor etib bo‘lmaydigan moddiy ehtiyojlari atrof- tabiat va o‘zga mavjudodlar bilan doimiy amaliy munosabatlarni taqozo qiladi”.[18] Ayrim adabiyotlarda komil insonni farishtalarga qiyoslash holatlari ham uchraydi. Bu qarashlar komillikning yuksak ideal daraja ekanini ifodalashga xizmat qiladi. Komillikka intilmagan, barkamol avlodni tarbiyalash haqida qayg‘urmagan xalq yoki millatning istiqboli zaiflashishi, hatto tanazzulga yuz tutishi mumkinligi haqida Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlarida ham ta’kidlab keladi. Bu fikrlar jamiyat taraqqiyotida ma’naviy omilning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jamiyat rivojlanishidagi yuksalish va tanazzul jarayonlari faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki ma’naviy muhit, insonlarning dunyoqarashi, e’tiqodi va axloqiy saviyasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ma’naviy inqiroz kuchaygan sharoitda ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy sustlashuv va siyosiy muammolar

[17].Имомназаров.М Глобаллашув ва маънавият.Маърузалар матни. 2012й

[18] Имомназаров.М Миллий маънавиятимиз асослари. Укув кулл.Олий ва урта махсус таълим вазирлиги. - Т.:Узбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2006. 291-бет.

chuqurlashishi mumkin. Shu sababli jamiyat taraqqiyotini tahlil qilishda inson omili, uning ma’naviy kamolot darajasi va qadriyatlar tizimi alohida e’tiborga olinishi lozim.

Milliy g‘oyaning asosiy maqsadlaridan biri ham aynan har tomonlama barkamol va komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Komil inson erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, o‘z xalqining manfaatlari va ideallari yo‘lida fidokorlik ko‘rsatadigan, Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida talqin etiladi. Shu ma’noda Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirishda o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘rni beqiyosdir, chunki aynan ular yangi avlod tafakkuri va dunyoqarashining shakllanishida asosiy ta’sir kuchiga ega hisoblanadi.

Komil inson g‘oyasi xalqimizning tarixiy-ma’naviy merosida chuqur ildizlarga ega bo‘lib, qadimiy manbalarda ham o‘z aksini topgan. Avestoda halol mehnat va ezgulik inson kamolotining muhim mezoni sifatida talqin etiladi. Islom falsafasi ta’sirida esa komil inson g‘oyasi yanada kengroq ma’no va mazmun kasb etgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlarida komil insonni tarbiyalash g‘oyasi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy fozil jamiyat konsepsiyasida shaxsning ma’naviy kamoloti adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti ekanini asoslab bergan. Shu jihatdan komil inson g‘oyasi nafaqat individual kamolot, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim falsafiy asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy tajribaga nazar tashlansa, buyuk shaxslarning faoliyati faqatgina yuksak tashkilotchilik va chuqur ilmiy salohiyat bilan emas, balki ularning yuksak axloqiy fazilatlari, odob-axloqi hamda ma’naviy yetukligi bilan ham o‘zining haqiqiy qiymatini topganini ko‘rish mumkin. Odoblilik, aslida, nafaqat boshqalarni hurmat qilish, balki insonning o‘z shaxsiyatiga bo‘lgan hurmati va mas’uliyatini ham anglatadi.

Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy yetukligida, ajdodlar merosini chuqur anglab, uni davom ettirish va boyitishida, shuningdek, katta-kichikka hurmat bilan munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Komillik darajasi subyektiv ravishda faqat shaxsning o‘zi tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan ham baholanadi. Shu jihatdan komil inson — qullik, mutelik va boqimandalik kayfiyatidan butunlay xalos bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan va faol pozitsiyaga ega shaxs sifatida talqin etiladi. Bunday inson o‘z e’tiqodi, Vataniga va xalqiga zid bo‘lgan zararli g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashmaydi, aksincha, ogohlik va ijtimoiy mas’uliyat bilan harakat qiladi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan urf-odat va an’analari ham komil inson tarbiyasining muhim ma’naviy asosini tashkil etadi. Vatanga muhabbat, ota-ona va yurtni muqaddas bilish, halollik, rostgo‘ylik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi qadriyatlar milliy mentalitetimizning ajralmas qismidir. Ushbu qadriyatlar jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri — yosh avlod ongida ana shunday ezgu fazilatlarni mustahkamlash, ularda zamonaviy barkamol inson timsolini shakllantirishdir. Chunki O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot maqsadlariga faqatgina yuksak ma’naviyatli, komil insonlar orqali erisha oladi.

Mutafakkirlar qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, komillik — bu mehr-oqibat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, matonat, tadbirkorlik kabi ko‘plab insoniy fazilatlarning yaxlit tizimidir. Komil inson o‘z manfaatidan ko‘ra jamiyat manfaatini ustun qo‘yadigan, mustaqil fikrga ega, ma’naviy jihatdan erkin shaxsdir. U hech qachon qullik yoki boqimandalik kayfiyatiga tushmaydi, shuningdek, jamiyat uchun zararli g‘oyalarga ergashib ketmaydi.

Shu bois xalqimizning ma’naviy merosi, ibratli urf-odatlari va tarixiy tajribasi komil inson tarbiyasining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga qaratilayotgan e’tibor ham aynan shu ma’naviy uzviylikni saqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Shu bois, bugungi kunda shakllanayotgan jamiyat — adolat tamoyillariga tayangan demokratik va huquqiy jamiyat bo‘lib, unda har bir fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini anglagan, yuksak ma’naviyatga ega, barkamol shaxs sifatida faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Agar jamiyat a’zolari ushbu mezonlarga javob bermasa, demokratiya g‘oyasi faqat nazariy tushuncha darajasida qolib ketadi va real ijtimoiy mazmun kasb etmaydi.

Komil inson tushunchasi o‘z ichiga bir qator muhim ma’naviy va ijtimoiy fazilatlarni qamrab oladi. Jumladan:

— milliy qadriyatlarga sodiqlik;
— umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish;
— begona va zararli g‘oyalar ta’siriga berilmaslik;
— mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish;
— mustaqillik g‘oyalarini mustahkamlashga hissa qo‘shish;
— ezgu g‘oyalar va maqsadlarga xizmat qilish;
— ma’naviy barkamollikka intilish;

— jismoniy yetuklik va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
— nafosat va estetik qadriyatlarga intilish.

Shu jihatdan qaraganda, yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish orqali komil insonni voyaga yetkazish masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda sog‘lom avlod harakatining keng miqyosda rivojlanishi, kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilinishi ham aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan strategik islohotlar sirasiga kiradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ta’lim va tarbiya uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada pedagogika fanlari doktori, dotsent M. Xamdamova tomonidan ilgari surilgan “Uzluksiz ta’limda barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasi” asarida ham komillikka eltuvchi fazilatlar shaxs kamolotining asosiy omillari sifatida tahlil etiladi. Unda ta’lim jarayonini nafaqat nazariy, balki amaliy va tarbiyaviy jihatdan ham boyitish zarurligi ta’kidlanadi.

Shu maqsadda amaliy mashg‘ulotlarni tarixiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda tashkil etish, muzeylarga sayohatlar uyushtirish orqali yoshlarni o‘z tarixini chuqur o‘rganishga yo‘naltirish, qishloq va mahallalarda qadimiy urf-odatlar, milliy o‘yinlar va an’analarni o‘rganish va targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim muassasalarida milliy liboslar ko‘rgazmalari, xalq o‘yinlari musobaqalari hamda milliy taomlar tayyorlash bo‘yicha tanlovlar o‘tkazish orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishi va hurmati yanada mustahkamlanadi. Bu kabi tadbirlar barkamol shaxsni shakllantirishda amaliy va tarbiyaviy jihatdan samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA RO‘YXATI

1. Ismailova Z.K. Ma’naviy-axlokiy tarbiyaning nazariy va eksprimental metodik asoslari (milliy istiklol tayasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida)13.00.06. ped.f.d. il.dar.olish uchun yoz.diss.Tosh., 2006.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: “O‘zbekiston”, 2018. 24-25-betlar.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар”. Т.: Янги аср авлоди, 2001 й. - 44-б.
3. Nazarov Q. Qariyatlar falsafasi (aksiologiya). -T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”. 2004. 28-bet
4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. -T.: “Yozuvchi”, 1996. 143-bet.